

DARS ISHLANMA NAMUNASI

Sana:

Sinf: 2-sinf

Mavzu: O‘qib uqmoq kerak.

Darsning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarda og‘zaki fikr ifodalashda ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlardan o‘rinli foydalanish; matnlarni ravon va ifodali o‘qish; so‘z va gapni o‘zaro farqlash, so‘zlarni o‘zaro biriktirgan holda gap hosil qila olish ko‘nikmalarini yuzaga keltirish;(Nutqiy kompetensiya og‘zaki nutq (OTMT.1.NK.ON.5); anglash(o‘qish va tushunish)(OTMT.1.NK.A.O‘T.1); Lingvistik kompetensiya (OTMT.2.LK.TII.6));

Tarbiyaviy maqsad: atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qilish (Nutqiy kompetensiya:og‘zaki nutq (OTMT.1.NK.ON.2));

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarda matnni qayta ijodiy bayon qila olish; matnning asosiy mohiyatini aniqlay olish, matn yuzasidan savollar bera olish; so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘zaro farqlash malakalarini yanada takomillashtirish(Nutqiy kompetensiya: og‘zaki nutq (OTMT.1.NK.ON.6); o‘qib tushunish (OTMT.1.NK.A.O‘T.4); Lingvistik kompetensiya (OTMT.2.LK.TII.4)).

Dars turi: Mustahkamlovchi dars

Dars tipi: noan’anaviy

Dars metodi: ko‘rgazmali metod, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, hikoya metodi.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: doska, bo‘r, darslik, ko‘rgazmalar, tarqatma material, individual topshiriqlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilib, davomat olinadi. Navbatchi axboroti tinglanadi. O'quvchilarning darsga tayyorlik holati tekshiriladi. Dorskaga sana va mavzu yoziladi.

II. O'tgan mavzuni mustahkamlash.



tayyorlab, dorskaga yopishtiriladi va o'quvchilarga sharti tushuntiriladi. O'qituvchi nomini aytgan o'quvchi dorskaga chiqib, o'tgan mavzuda o'rgangan ma'lumotini yozadi. Ma'lumotlar takror va chala bo'lmasligini inobatga olish ta'kidlanadi.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash.

7-mashqda berilgan namunani o'qituvchi o'qib beradi va o'quvchilar ajratib ko'rsatilgan so'zlarni almashtirib, Jamshid ikkichi emas, balki a'lochi bo'lib qoladigan matnga o'zgartirib yozishini tushuntirib beradi. 2-3- nafar o'quvchi o'zgartirgan matnlarini o'qib beradilar va qolgan o'quvchilar ham ularnikidek o'z matnidagi xatolarni to'g'rilab oladi.

8-mashqda she'rni ifodali o'qish uchun bir nafar o'quvchi dorskaga chiqariladi. So'ng o'quvchilardan nimani tushungaliklari haqida so'raladi. O'quvchilar she'rning mazmunini daftariga matn tarzida yozib oladilar.

Oyisi esa unga turli rangdagi iplar olib beradi.

U chiroyli nimcha va paypoqlar to‘qiydi.

To‘qiganlarini ukasi va singlisiga sovg‘a qiladi .

Madinaning qo‘li gul.

mashqni bajarish uchun sinf ikki guruhga bo‘linadi. Keltirilgan gaplar doskaga alohida-alohida qilib yopishtirib

qo‘yiladi. Doskaning ikki tomoniga mashqni bajarish uchun ko‘rgazma tayyorlanadi. Doskaga ikkita guruhdan 1 nafardan o‘quvchi chiqariladi. So‘ng o‘quvchilar aralash gaplarni mazmunan ketma-ketlikda qo‘yishi va unga sarlavha topishi kerak bo‘ladi. O‘quvchilar guruh yordamidan foydalanishi ham mumkin. Doskada bajarib bo‘lingandan so‘ng o‘quvchilar daftariga yozib oladi.

10-mashqda o‘quvchilar qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan foydalangan holda matnni kichik ertak shaklida yozishi kerak bo‘ladi. Kim eng qiziqarli ertak matnini yozsa, darsning oxirida u uchun tayyorlab qo‘yilgan ertak kitob bilan taqdirlanadi.

11-mashqda ham o‘quvchilar berilgan matnni o‘zgartirib qayta yozadilar. Bir o‘quvchi matnni ifodali o‘qib beradi. Bolalar yozishidan oldin 2-3 nafar o‘quvchining matni og‘zaki tinglanadi va tahlil qilinadi. Savollarga javob beriladi.

IV. O‘quvchilarni baholash va darsni yakunlash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar baholanadi hamda rag‘batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish. 12-mashq uyga vazifa qilib beriladi va sharti o‘qib, o‘quvchilarga tushuntiriladi. Ular „Sevimli qahramonim“ mavzusida yozgan matni asosida kichik taqdimot tayyorlab keladi.